

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O‘ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ekonometrika kafedrası dotsenti

E-mail: o.rixsimbaev@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyati va bozor infratuzilmasining boshqa tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholash tuzilmalarining rieltorlik, birja, marketing, axborot va sug‘urta xizmatlari bilan integratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, asosiy fondlar qiymatini to‘g‘ri belgilash hamda investitsion jarayonlarni faollashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tadqiqotda baholash jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, yagona axborot platformasini yaratish va xalqaro standartlarga asoslangan baholash tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: baholash tuzilmalari, bozor infratuzilmasi, asosiy fondlar bozori, rieltorlik, birja faoliyati, sug‘urta, integratsiya, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы совершенствования взаимодействия между оценочными структурами и другими элементами рыночной инфраструктуры в Республике Узбекистан. Показано, что интеграция оценочных компаний с риэлторскими, биржевыми, маркетинговыми, информационными и страховыми организациями способствует повышению экономической эффективности, объективному определению рыночной стоимости основных фондов и активизации инвестиционных процессов. В исследовании предложены пути совершенствования взаимодействия государственного и частного секторов, создания единой информационной платформы и внедрения системы оценки, основанной на международных стандартах.

Ключевые слова: оценочная деятельность, рыночная инфраструктура, рынок основных фондов, риэлторские услуги, биржевая деятельность, страхование, интеграция, экономическая эффективность.

Abstract

This paper examines the mechanisms for improving cooperation between valuation structures and other components of market infrastructure in the Republic of Uzbekistan. It highlights that integrating valuation organizations with real estate, exchange, marketing, information, and insurance institutions enhances economic efficiency, ensures accurate determination of fixed asset market values, and stimulates investment activities. The study also proposes measures to strengthen collaboration between the public and private sectors, develop a unified information platform, and implement an internationally standardized valuation system.

Keywords: valuation structures, market infrastructure, fixed asset market, real estate services, exchange activities, insurance, integration, economic efficiency.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun asosiy shartlardan biri, bozorning ragʻbatlantiruvchi omillari taʼsirida iqtisodiyotdagi tovarlar, xizmatlar, pul, qimmatli qogʻozlar va ishchi kuchining oqimlariga xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar oʻrtasida oʻzaro bogʻliq tizimni yaratish va rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu tashkilotlar bozor xoʻjaligining institutlari yoki infratuzilmasi, deb nomlanadi. Bozor infratuzilmasi (ingl. market infrastructure) – “asosiy vazifasi tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan isteʼmolchilarga etkazishdan iborat boʻlgan tarmoqlar, kichik tarmoqlar va faoliyat sohalari majmuidir. Bozor rivojlangan infratuzilmasi iqtisodiyotda mablagʻlarning aylanishini, yangidan barpo etiladigan qiymatni amalga oshirish jarayonini tezlashtirish uzun shart-sharoit yaratadi”¹. Bozor infratuzilmasi – murakkab, uzluksiz rivojlanib boruvchi va buning oqibatida puxta ilmiy tadqiq etilishni talab qiluvchi tizim. Ushbu zarurat shu bilan shartlanganki, mazkur tizim u bilan xoʻjalik yurituvchi subyektlar tovarlar, mahsulot va xizmatlar isteʼmolchilari sifatida duch keladigan deyarli butun iqtisodiyotni oʻzida namoyon etadi. Bozor turli sektorlarining infratuzilmasini shakllantirish ularning Barchasi uchun xos boʻlgan umumiy belgilarga ham, ulardan har birining oʻziga xos xususiyatlariga ham ega. Ushbu holat turli asosiy fondlar bozorining infratuzilmasiga ham taalluqli.

Ushbu bozorlar infratuzilmasi – asosiy fondlarni bozorda sotuvchidan xaridorga tomon yoʻnaltirishning yagona va belgilangan yoʻnalishiga ega boʻlgan qatʼiy qayd etilgan sxema emas, balki uning ishida ushbu yoʻnaltirishning eng optimal yoʻllarini tanlash mumkin boʻlgan parallel-izchil aloqalardan iborat tarmoq. Mazkur tarmoqning har bir boʻgʻini va uzeli alohida maqsadni – butun oʻzining faoliyatidan olinadigan foydani koʻpaytirishni koʻzlovchi xoʻjalik jihatdan mustaqil subyekt hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar aktivlarini baholash va prognozlash masalalarida xalqaro miqyosda bir qator yirik olimlar va amaliyotchilar muhim hissa qoʻshgan. Jumladan, Damodaran oʻz asarlarida aktivlar qiymatini aniqlashda diskontlagan pul oqimlari (DCF), koʻpaytma (multiples) va opsiyon modellarning ustunlik va cheklovlarini asoslab bergan. Friedman va Ordway koʻchmas mulk bahosini belgilashda daromad yondashuvi va koʻp omilli tahlilning amaliy jihatlarini yoritgan. Geltner va hamkorlari tijorat koʻchmas mulkini tahlil qilishda risklar, likvidlik va iqtisodiy sikllarni inobatga olish zarurligini koʻrsatgan. Jorion esa aktivlarni baholashda risklarni baholashning statistik va ekonometrik yondashuvlarini Value at Risk modeli orqali kengaytirgan. Shu bilan birga, Koller, Goedhart va Wessels korxonalar qiymatini aniqlashni strategik boshqaruv qarorlari bilan bogʻlagan holda, kompaniya qiymatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Nazariy asos sifatida Gujarati va Wooldridge ekonometrika boʻyicha asarlarida koʻp omilli regressiya, stasionarlik, vaqt qatorlari va panel maʼlumotlar modellarning

¹ «Язык бизнеса. Термины», Изд. компания «Бизнес-каталог», Т., 1995, стр. 185

aktivlar ko'rsatkichlarini tahlil qilishdagi qo'llanilishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, Griliches intangibl aktivlarni, ya'ni intellektual mulk va innovatsiyalarni baholashda ekonometrik yondashuvlarning ahamiyatini asoslagan. Shapiro va Varian esa axborot iqtisodiyoti va intellektual aktivlar bozorini o'rganib, bu aktivlar qiymatini aniqlashda yangi nazariy tamoyillarni ilgari surgan. Yakuniy jihatdan, Han va Strange moliya bozorlaridagi dinamik o'zgarishlarning korxonalar aktivlari qiymatiga ta'sirini empirik jihatdan isbotlagan va baholashda makroiqtisodiy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatgan.


METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda korxonalar aktivlari ko'rsatkichlarini baholash va prognozlash uchun zamonaviy ekonometrik usullar qo'llanildi. Avvalo, tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha tavsifiy statistika tahlili amalga oshirilib, ularning asosiy tendensiyalari, dispersiya va asimmetriya ko'rsatkichlari aniqlangan. Keyinchalik omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni tekshirish maqsadida korrelyatsiya tahlili va multikollinearlikni aniqlash uchun VIF koeffitsiyentlari hisoblandi. Ma'lumotlar qatorining statsionarligi ADF (Augmented Dickey–Fuller) testi yordamida tekshirildi. Model qurishda ko'p omilli regressiya usuli qo'llanilib, parametrlarni baholashda eng kichik kvadratlar usuli (OLS) ishlatildi. Model sifatini baholash uchun determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), Fisher F-mezoni, Student t-mezonlari va Durbin–Uotson testi kabi diagnostik mezonlardan foydalanildi. Prognozlash jarayonida esa vaqt bo'yicha o'zgarishlarni aks ettirish uchun trend modellar tuzildi va ularning asosida natijaviy ko'rsatkichlarning istiqboldagi qiymatlari prognoz qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Respublikamizda xo'jalik yuritish bozor mexanizmlariga o'tkazilishining, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarining kengayishi, korxonalarini tarkibiy o'zgartirish, xususiylashtirish, aksiyalashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish va mulkiy hamda nomulkiy huquqlar bilan bog'liq operatsiyalarni rivojlantirish, baholash faoliyatining ahamiyatini oshirdi. Asosiy fondlar bozor qiymatini aniqlash va baholash xizmatlarini taqdim etish, baholash tuzilmalarining boshqa bozor tuzilmalariga, jumladan asosiy fondlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalarga qiymatni baholashni normativ-huquqiy tartibga solish, metodologiya va texnologiyalarni, axborot ta'minotini va boshqa resurslarni samarali ishlatishni ta'minlashga asoslangan bo'lishi kerak.

Respublikamiz iqtisodiyotining izchil rivojlanishi va xo'jalik yuritish bozor mexanizmlarining takomillashuvi, asosiy fondlar bozor qiymatini aniqlashga nisbatan yondashuvlarning doimiy ravishda takomillashtirilishi va baholash texnologiyalarining yangi metodologiyalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.



1-rasm. Baholash tuzilmalarining boshqa bozor tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalari va o‘zaro hamkorligining bazaviy sxemasi¹

Bozor infratuzilmasi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy fondlar bozorida asosiy ishtirokchilari – iste‘mol talabini va taklifni shakllantiruvchi, asosiy fondlarning bozorda sotilishini ta‘minlovchi sotuvchilar va xaridorlar bilan o‘zaro aloqalarini va hamkorligini belgilab beradi. Bu jarayonlar 4.5-rasmda ko‘rsatilgan².



2-rasm. Asosiy fondlar bozori infratuzilmasining o‘zaro aloqasi va o‘zaro hamkorligi

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Har bir ko'rsatilgan xizmat infratuzilmaning tegishli bo'g'iniga foyda olish imkonini beradi. Ushbu infratuzilmaga kiruvchi xo'jalik yurituvchi bo'g'inlar yig'indisi ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining oshirilishidan manfaatdor, bunga asosiy fondlar miqdorini va ularning bozorda sotilish hajmini oshirish hisobidan ham erishish mumkin. Demak, bozor islohotlari tufayli dunyoga kelgan bozor infratuzilmalari ushbu islohotlarning rivojlantirilishidan va chuqurlashtirilishidan manfaatdor. Albatta, infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lsa, bozor shunchalik sivilizatsiyalashgan, raqobat shunchalik keskin, bozor o'yinlari qoidalarini buzish shunchalik qiyin¹.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy shartlardan biri, bozor omillarining ta'siri ostida iqtisodiy muhitda ko'chib yuruvchi tovarlar, xizmatlar, pul, qimmatli qog'ozlar, ishchi kuchi oqimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tizimining o'zaro bog'lanishi va rivojlanishidir. Ushbu tizimlarning shartlari va o'zaro bog'liqliklari bozor mexanizmlarining sifatli ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek, bozorning hozirgi holati va talablar muvofiqligi orqali, iqtisodiyotdagi korxonalar va iste'molchilar o'rtasida o'zaro aloqalar aniq ko'rinadi.

Bundan tashqari, bozor infratuzilmasining muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashda, ularning tasodifiy xarajatlarini boshqarishda ehtiyoj borligini tushunish muhimdir. Raqobatni kuchaytirish va sivilizatsiyalashgan muhitni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar mavjud. Asosiy fondlar bozorining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan infratuzilma esa, tovarlar va mahsulotlar bozorida bo'lganidek, baholash kompaniyalari, tashkilotlar, va boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmasligi mumkin, chunki bozorda mahsulotning narxi, ishlab chiqaruvchining narxi va xarajatlari asosida belgilanishi zarur.

Asosiy fondlar bozorida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning faoliyatini, axborot, konsalting, va marketing xizmatlari bilan bog'lash orqali, amaldagi bozorlar o'rtasida vazifalarni o'zgartirish va samarali boshqaruvni amalga oshirish mumkin. Bu jarayonda bozor infratuzilmasining ko'p qismida korxonalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tuzilma orqali bozor infratuzilmasining ishlashini nazorat qilish va o'zgartirish kerak. Bozor infratuzilmasining to'liq shakllanishi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan aloqalarning yaxshilanishi orqali asosiy fondlar bozorida xizmatlar ko'rsatiladi, va bu faoliyatni baholash, rieltorlik, va birja xizmatlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Respublikamizda asosiy fondlar bozoridagi faoliyatni takomillashtirish, davlat va bozor mexanizmlarining o'zaro munosabatlarini, baholashning to'g'ri amalga oshirilishiga bog'lash zarurati hamda undan keyin barcha bozor tuzilmalarining mavjud talab va ehtiyojlarga mos kelishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, baholash bozorining o'zini o'nglash uchun zarur bo'lgan asosiy qadamlarni qo'yadi.

Asosiy fondlar qiymatini aniqlash jarayonida baholash tuzilmasi, olingan natijalarga muvofiq, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarining o'zaro aloqalarini tartibga soladi. Bu sharoitda, baholash tuzilmasi va xo'jalik yurituvchi subyekt

¹«Основы приватизации» Госкомимущество Республики Узбекистан, ИПК «Шарк», Т., 1996, стр. 130.

oʻrtasidagi hamkorlik bevosita va oʻziga xos xususiyatga ega boʻladi. Asosiy fondlar qiymatini baholashda, ular sotish yoki garov evaziga mablagʻ olish maqsadida ishlatilsa, baholash natijalari yuqorida qayd etilgan maxsus tashkilotlar (masalan, birjalar yoki banklar) tomonidan hal qilinadigan masalalar uchun boshlangʻich baza sifatida xizmat qiladi.

Bu holatni umumlashtiradigan boʻlsak, asosiy fondlar qiymatini baholash jarayoni baholash tuzilmalarining maqsadlariga qarab, ham xoʻjalik yurituvchi subyektlar, ham boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni taʼminlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, baholash tuzilmalarining ularni oʻzaro hamkorlik qiladigan asosiy bozor infratuzilmalari (sotuvchilar va xaridorlardan tashqari) faoliyatining asosiy yoʻnalishlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

Rieltorlik xizmatlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, manfaatdor shaxsning nomidan va uning manfaatlari yoʻlida, lekin uning hisobidan, fuqarolik-huquqiy operatsiyalarni amalga oshirishga oid kelishuv yoki ishonchnoma asosida bajariladigan kasbiy tadbirkorlik faoliyatini anglatadi. Rieltorlik firmalarining faoliyat yuritadigan bozorini uyushgan bozor deb atash mumkin¹. Rieltorlik xizmatlari jumlasiga quyidagi faoliyatlar kiradi:

- xizmatlar isteʼmolchisi (ishonch bildiruvchi) bilan tuzilgan kelishuv asosida, ishonch bildiruvchi nomidan va uning hisobidan unga tegishli yoki foydalanishga ruxsat berilgan asosiy fondlar boʻyicha yuridik harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan kelajakda shartnomada belgilangan yoki tuzish vaqtida koʻrsatilmagan asosiy fondlarni sotib olish yoki ulardan voz kechish majburiyatlarini oʻz zimmasiga oladigan topshiriq shartnomasi asosida amalga oshiriladigan ishonchli shaxsning faoliyati.

- asosiy fondlar bilan bitimlar tuzish istagini bildirgan shaxslarga, keyinchalik, ishonchli shaxs tomonidan, tegishli bitimlarni tuzishda vositachilik qilish uchun kontragentlarni qidirish boʻyicha xizmatlar koʻrsatish, ammo ularning bevosita tomoni hisoblanmasligi kerak.

asosiy fondlar ishonchli boshqaruvchisi tomonidan mulkdorning topshirigʻiga asoslanib, oʻzining tavakkalchiligini inobatga olgan holda amalga oshiriladigan, mulkdorning asosiy fondlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqlaridan foyda olishga qaratilgan boshqaruv faoliyati. Asosiy fondlarning ishonchli boshqaruvchisi – bu, shartnomaga muvofiq, asosiy fondlar bilan muayyan vaqt davomida yuridik va amaliy harakatlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor boʻlib, qonun yoki shartnomaga toʻgʻridan-toʻgʻri taqiqlangan harakatlardan mustasno.

axborot va maslahat xizmatlarini taqdim etish, shu jumladan, isteʼmolchilarga asosiy fondlar toʻgʻrisidagi axborot va bitimlarni tuzish uchun zarur boʻlgan boshqa axborotlarni taqdim etish, bozor konyunkturasini oʻrganish va asosiy fondlar bilan

¹ «Институциональные основы формирования многоукладной экономики», НИИУРР, изд. «Консаудитинформ», Т., 2012, стр. 118.

bogʻliq boshqa xizmatlarni koʻrsatish, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq litsenziya talab qilinadigan xizmatlardan tashqari.

bitimlarning toʻgʻri tuzilishi va bajarilishi uchun yordam berish, shu jumladan hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek bitimlar boʻyicha hisob-kitoblarni xavfsiz va toʻgʻri amalga oshirish boʻyicha xizmatlar, ularni taqdim etish uchun bank faoliyati litsenziyasiga ega boʻlishi kerak, bundan mustasno.

asosiy fondlarni qayta sotish yoki foydalanishga topshirish maqsadida ularni barpo etish boʻyicha faoliyat.

Asosiy fondlar bozorida rieltorlik xizmatlarining xilma-xilligi mazkur bozor infratuzilmasida tadbirkorlik faoliyati ushbu turining muhimligini belgilab beradi. Bunda hal etiladigan vazifalarning murakkabligi yuksak kasbiy tayyorgarlikni, masʼuliyat esa uni sugʻurta qildirish zarurligini talab qiladi.

Birja xizmatlari deganda yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy fondlar bilan savdolarni tashkil qilish, oʻtkazish va ularning natijalarini rasmiylashtirish borasidagi kasbiy tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Asosiy fondlar bozorida birja faoliyati, odatda, ixtisoslashgan birjalar va ularning mintaqaviy filiallari tomonidan amalga oshiriladi. Birja faoliyati toʻliq xoʻjalik hisobi tamoyillari asosida amalga oshirilib, asosiy fondlar bilan birja savdosini oʻtkazish borasidagi Barcha belgilangan tartibotlar va mexanizmlarning bajarilishini taʼminlashga yoʻnaltirilgan.

Asosiy fondlarning sivilizatsiyalashgan bozorini shakllantirishda va rivojlantirishda sugʻurta, auditorlik, konsalting va bank tuzilmalari muhim rol oʻynaydi. Masalan, bozor munosabatlarining rivojlanishiga qarab nafaqat asosiy fondlarni turli xildagi tavakkalchiliklardan sugʻurtalash, balki ular bilan tuziladigan bitimlarni sugʻurtalash borgan sayin koʻproq ahamiyat kasb etmoqda, u sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda sugʻurta qildiruvchining moliyaviy barqarorligini taʼminlaydi. Jahon amaliyotida bunday tavakkalchiliklar sugʻurta kompaniyalarida rieltorlik firmalari tomonidan sugʻurta qilinadi, ularning ayrimlari esa asosiy fondlar bilan amalga oshiriladigan sugʻurta operatsiyalarini oʻtkazishga ixtisoslashgan.

Infratuzilmaning har bir boʻgʻini asosiy fondlarning sotuvchilardan xaridorlarga yoʻnaltirilishidan manfaatdordir, ularning ushbu yoʻnalishdagi muvaffaqiyati esa koʻp jihatdan mazkur boʻgʻinlar saʼy-harakatlarining muvofiqlashtirilganligiga, turli xizmatlarning optimal tarzda uygʻunlashtirilganligiga, ushbu xizmatlarni koʻrsatishni tashkil etishdagi aniqlikka bogʻliq. Shuning uchun bozor infratuzilmasi Barcha boʻgʻinlarining asosiy fondlar bozorini rivojlantirishni faollashtirish va ularning oborotini tezlashtirishdagi imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish katta ilmiy va amaliy qiziqish uygʻotadi.

Oʻzaro hamkorlik ishtirokchilarining tarkibi asosiy fondlar qiymatini baholashning maqsadli yoʻnalishi bilan belgilanadi. Bunda bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalarning ixtisoslashganlik darajasi, ushbu tuzilmalarning koʻp sohaga ixtisoslashganlik darajasi roven muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlar bilan fuqarolik-huquqiy oborotni tashkil etish va amalga oshirish hamda ushbu asosiy fondlar mulkdorlarining munosabatlarini tartibga solish

jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlar (asosiy fondlar mulkdorlari, sotuvchilar va xaridorlar) hamda asosiy fondlar bozorining ishtirokchisi sifatida va iqtisodiyotning ushbu sektorini tartibga soluvchi organ sifatida davlat ishtirok etadi. Asosiy fondlar qiymatini baholash jarayonida ushbu baholashning maqsadli yo‘nalishiga qarab baholash tuzilmalari turli tuzilmalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi. Turli yo‘nalishdagi baholash xizmatlarini ko‘rsatish chog‘ida baholash tuzilmalarining boshqa subyektlar bilan o‘zaro hamkorligi 4.1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Baholash xizmatlarini maqsadli yo‘nalishiga qarab baholash tuzilmalarining boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro hamkorligi

Bozorlar turlari va baholash maqsadi	Qiymat turlari	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro hamkorlik
1	2	3
Ko‘chmas mulk bozori, fond bozori, birja va nobirja savdolari	Bozor qiymati	Sotuvchilar, xaridorlar, marketing, konsalting, birja va boshqa tuzilmalar
Investitsiyalar bozori	Investitsiya qiymati	Asosiy fondlar mulkdorlari, investorlar, marketing va konsalting tuzilmalari
Kreditlar bozori	Garov qiymati	Asosiy fondlar mulkdorlari, marketing tuzilmalari, banklar va b.
Asosiy fondlarning tugatilishi munosabati bilan qiymatni baholash	Tugatish qiymati	Asosiy fondlar mulkdorlari, xaridorlar, marketing, konsalting, birja va boshqa tuzilmalar
Asosiy fondlarga soliq solishga aniqlik kiritish	Bozor qiymati yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida e‘tirof etiladigan boshqa qiymat	Asosiy fondlar mulkdorlari, soliq organlari, konsalting tuzilmalari
Moliyaviy hisob va hisobotlar maqsadlari uchun qiymatni baholash:		Asosiy fondlar mulkdorlari, statistika va asosiy fondlar hisobini yuritish organlari
- asosiy fondlarni foydalanishga topshirish vaqtida	Dastlabki qiymat	
- asosiy fondlarni baholash vaqtida	Tiklash qiymati	
Yo‘qotishlar yoki sug‘urtalangan asosiy fondlarning zarar ko‘rishi qiymatini baholash	Boshlang‘ich qiymat yoki o‘rin bosish qiymati	Asosiy fondlar mulkdorlari, sug‘urta va konsalting tuzilmalari

Baholash tuzilmalarining bozor infratuzilmasining boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlari bilan o‘zaro hamkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqayotib ushbu o‘zaro hamkorlikning qator o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Baholash xizmatlarining buyurtmachilari (iste‘molchilar), odatda, muayyan vazifalarni hal etish uchun asosiy fondlar qiymatining baholanishiga ehtiyoj sezishadi, demak, ular alohida xizmatlarning emas, balki ushbu vazifalarni hal etish uchun xizmatlar butun majmuining ko‘rsatilishidan (asosiy fondlarni sotish, asosiy fondlarni garovga qo‘yish evaziga kredit olish va h.k.) manfaatdordirlar, ya‘ni iste‘molchilar ushbu xizmatlar majmuining “yagona oyna”dan ko‘rsatilishidan manfaatdor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi sharoitida baholash faoliyatining ahamiyati keskin ortib bormoqda. Baholash tizimi nafaqat

aktivlarning bozor qiymatini aniqlash vositasi, balki davlat, biznes va investitsiya sektorlari oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarning barqarorligini taʼminlaydigan muhim institut sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, baholash tuzilmalarining boshqa bozor infratuzilmalari — rieltorlik, birja, marketing, axborot va sugʻurta xizmatlari bilan samarali integratsiyasi iqtisodiy faoliyatni faollashtiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda investitsion muhitning shaffofligini taʼminlaydi.

Bozor infratuzilmasining har bir boʻgʻini oʻzining maqsadi, manfaatlari va iqtisodiy roli bilan baholash tizimining rivojlanishida oʻziga xos oʻrin tutadi. Ayniqsa, rieltorlik va birja xizmatlari orqali aktivlar bozorida shakllanayotgan narx signallari baholash natijalari bilan uygʻunlashganda, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni yanada aniq va ishonchli boʻladi. Shuningdek, baholash jarayonida davlat ishtirokining mavjudligi - normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos metodologiyani joriy etish, axborot almashinuvini raqamlashtirish va “yagona oyna” tizimini yaratish orqali, bozor mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Malaysian Education Blue Print (2015 – 2025). 2015. Higher education retrieved form
2. Tacis programme (2000-2006). Council Regulation (EC, Euratom) No 99/2000 of 29 December 1999 concerning the provision of assistance to the partner states in Eastern Europe and Central Asia [See amending acts]. <https://eur-lex.europa.eu/EN/legal-content/summary/tacis-programme-2000-2006.html>
3. Abbasov M.E. Metod «парных продаж». Гранисы применимости / URL:
4. Anikina O. «O razvitii osenochnoy deyatelnosti v Uzbekistane». Jurnal «Ekonomika i klass sobstvennikov», №3, 2002 g, str. 42
5. Barinov N.P. O razbrose sen na odin ob'ekt nedvijimosti (rezultaty oprosa specialistov) // Byulleten RWAY/ – №271 (oktyabr 2017), URL: http://srroo.ru/upload/iblock/347/o-razbrose-tsen-na-nedvizhimost_barinov-n.p.pdf
6. Bufetova L.P. Istoriya ekonomiki. Uchebnoe posobie. Chast I. Barnaul. Akademiya ekonomiki i prava. Altayskoe otdelenie, 1996;
7. Jid Sh. Kooperatsiya. S-Peterburg, Prometey, 1909.;
8. Jid Sh. Rist Sh. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. M., Ekonomika, 1995.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**